

MOLIYAVIY TAHLILDA MOLIYAVIY NATIJALAR TO'G'RISIDAGI HISOBOT ASOSIY AXBOROT MANBAI SIFATIDA AFZALLIKLARI

Sharofiddinov Shohrux Ulug'bek o'gli
Alfraganus university o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda BHMS va MHXS asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shaklini asosiy farqlari bayon qilingan shuningdek moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni MHXS asosida yuritishning afzalliklari ko'pligi to'g'risida xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobot, daromad, foyda, zarar, moliyaviy natija, boshqa umumlashgan daromad moliyaviy hisobotning xalqaro standarti.

Аннотация. В данной диссертации описываются основные различия между финансовой отчетностью, подготовленной по общепринятым принципам бухгалтерского учета (НСБУ) и МСФО, а также делаются выводы о многочисленных преимуществах подготовки финансовой отчетности по МСФО.

Ключевые слова: Финансовая отчетность, доход, прибыль, убыток, финансовый результат, прочий совокупный доход, международный стандарт финансовой отчетности.

Abstract. This thesis describes the main differences between the financial statements prepared under NAS and IFRS, and also draws conclusions about the many advantages of preparing financial statements based on IFRS.

Keywords: Financial statements, income, profit, loss, financial result, other comprehensive income, international financial reporting standard.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini baholashda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tahlil qilish muhim o'rin tutadi. Ushbu hisobot korxonaning muayyan davr mobaynida olgan daromadlari, qilgan xarajatlari va yakuniy moliyaviy natijasini – ya'ni sof foyda yoki zarar miqdorini – aks ettiradi. Mazkur hisobot tahlili yordamida korxona faoliyatining samaradorligi, foyda manbalari hamda xarajat tuzilmasi aniqlanadi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tahlil qilish korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash, boshqaruv qarorlarini asoslash va kelgusidagi rivojlanish strategiyasini belgilash uchun zarur vosita hisoblanadi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot tashkilotning hisobot davridagi moliyaviy faoliyatini tavsiflaydi va bu faoliyatning turli jihatlarini tushunishga imkon beradigan usul bilan ko'rsatadi.¹⁶

Bu tahlil orqali korxona o'z daromadlarini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va foyda darajasini barqarorlashtirish yo'llarini topishga yordam beradi. Shuningdek, tahlil natijalari asosida ishlab chiqarish hajmi, narx siyosati,

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-sonli BHMS) "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati"

investitsiya yo‘nalishlari va resurslardan foydalanish samaradorligi yuzasidan aniq xulosalar chiqariladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Xo‘jalik yurituvchi subektlarning moliyaviy natijalarini shakllantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida” nizom, shuningdek buxgalteriya hisobining milliy standarti “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” 1-sonli BHMS asos bo‘luvchi normativ huquqiy asos bo‘ladi. MHXS asosida hisobotlarni yuritish muammolari va istiqbollari yuzasidan bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib brogan.Xususan S.N.Tashnazarov (2019) doktorlik disertatsiyasida moliyaviy hisobotlarni MHXS talablariga muvofiqlashtirish va ilg‘or tajribalardan samarali foydalanish zarurligi to‘g‘risida chuqur o‘rganish va tahlillar borgan bo‘lsa [1], A.Z.Avloqulov moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarni yuritish bo‘yicha o‘zning tadqiqotlarini ishlarini olib borishgan. [2],

Chet elda ham MHXS bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanish va daqiqot ishlari olib boriladi. Shulardan Khaled Hussainey buxgalteriya va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar bilan bog‘liq qirralarini o‘rgangan bo‘lsa asosiy tadqiqoti sifatida MHXSning korporativ moliya sohasidagi ta‘sirini, shuningdek, bu standartlar xalqaro investitsion qarorlarni qanday shakllantirishini yoritgan. [3]

David Alexander va Christopher Nobes MHXS xalqaro miqyosda qo‘llanilishi va buxgalteriya hisobotlariga qanday ta‘sir ko‘rsatishini shuningdek xalqaro moliyaviy hisobotlarning korporativ boshqaruv va investorlar bilan munosabatlarda o‘ynaydigan roli haqida keng izlanishlar olib borishgan. [4]

Rossiya olimi Sokolov (2018) postsovet mamlakatlarida MHXS joriy etish tajribasini tahlil qilib, milliy iqtisodiy muhitning xususiyatlarini inobatga olish muhimligini aytgan. [5]

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning MHXS borasidagi yondashuvlarini e‘tirof etgan holda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish BHMS va MHXS asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot va uni ularni farqlari to‘g‘risida to‘xtalmoqchimiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Xo‘jalik yurituvchi subektlarning moliyaviy natijalarni tahlil qilish orqali iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun foyda va zarar shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil va sintez usuli, taqqoslash usuli mantiqiy fikrlash kabi tadqiqot metodlaridan foydalanib ularni takomillashtirish yo‘llarini belgilashga qaratilgan.

Tahlil va natijalar.Xo‘jalik yurituvchi korxonalar uchun moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot muhim hisob shakllaridan hisoblanandi.Chunki bu hisobot korxonaning moliyaviy faoliyatidagi asosiy ko‘rsatkichlaridan bo‘lib, uning daromadlari, xarajatlari va sof foydasi haqida to‘liq ma‘lumot berib, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asos bo‘ladi.

Qisqacha aytganda, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot korxonaning iqtisodiy sog‘lomligini ko‘rsatuvchi “asosiy ko‘rsatkich oynasi” hisoblandi.

BHMS va MHXS asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shaklini farqlarini taqqoslama tahlili (jadval).

Jadval

BHMS va MHXS asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shaklini farqlarini taqqoslama tahlili

№	Mezon ko'rsatkichlari	Moliyaviy hisobotni xalqaro standarti (MHXS)	Buxgalteriya hisobining milliy standart (BHMS)	Izoh
1	Hisobot nomi	Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot;	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	IFRSda 'boshqa keng qamrovli daromadlar' ham mavjud, BHMSda esa faqat foyda va zarar.
2	Tuzilish shakli	Yagona yoki ikki qismli (foyda/zarar +boshqa umumlashgan daromad)	Faqat yagona shakl – foyda va zarar ko'rsatkichlari bilan	MHXS da kengroq tarkib ko'rsatiladi.
3	Daromadlar tasnifi	Yalpi foyda, Operatsion faoliyat foydasi, Foyda solig'i to'langunga qadar foyda, Davom etayotgan faoliyatdan foyda, Hisobot davri uchun sof foyda, Boshqa umumlashgan daromadlar	Yalpi foyda, asosiy faoliyat foydasi, umum xo'jalik foydasi, soliq to'langunga qadar foyda, sof foyda.	Daromadlar tasnifi deyarli o'xshash lekin MHXS asosidagi hisobotlarda boshqa umumlashgan daromadlar hisobi ham olib boriladi.
4	Hisobot tili va valyutasi	Funksional valyutada (masalan, USD, EUR)	Milliy valyutada – so'mda	Valyuta va format jihatidan farq mavjud.
5	Hisobot maqsadi	Investorlar, kreditorlar va xalqaro foydalanuvchilar uchun	Asosan davlat nazorati va ichki foydalanuvchilar uchun	MHXS investor yo'naltirilgan, BHMS nazorat yo'naltirilgan.

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlari dan BHMS va MHXS asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shaklini farqlarini taqqoslama tahlilini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek quyida IFRS (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari) va IAS (Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti) kesimi doirasida, ayniqsa IAS 1, IFRS 15, IFRS 9, IAS 12, IAS 33 va boshqa tegishli standartlarga tayanib, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni yuritishning asosiy afzalliklari ko'rishimiz mumkin:

1. Taqqoslanish va shaffoflik: Tuzilishi va atamalari yagona bo'lgani uchun hisobot boshqa kompaniyalar hisobotlari bilan oson taqqoslanadi; investor va kreditorlar uchun tushunarli bo'ladi.

2. Kapitalga kirish osonlashadi: Xalqaro investorlar va banklar MHXSni tan oladi. Natijada moliyalashtirish qiymati pasayishi, fond bozorlariga va chet el kredit liniyalariga chiqish imkoniyati oshadi.

3. Boshqaruv qarorlari sifati: Segmentlar, davom etayotgan/etmayotgan faoliyatlar va kengaytirilgan ochiqliklar tufayli marjalar, bir martalik ta'sirlar va risklar ravshan ko'rinadi; budget va KPI'larni hisoblash aniqroq va osonroq bo'ladi.

4. Audit va ichki nazorat kuchayadi: Aniq hisob siyosatlarini va izohlar auditorlikni yengillashtiradi; kredit, likvidlik, valyuta risklari bo'yicha ochiqliklar yaxshilanadi.

5. Konsolidatsiya va guruh hisobotlari: IFRS 10 va IAS 28 konsepsiyalari asosida konsolidatsiyahisobotlarini tayyorlash osonlashadi va guruh darajasida aniq va taqqoslanadigan foyda ko'rsatkichlari shakllanadi.

Xulosa. Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida foyda va zarar hisobotini tahlil qilish nafaqat o'tgan davr natijalarini baholash, balki kelajakdagi moliyaviy holatni prognozlash imkonini ham beradi. Buning uchun iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil etishning yangi usullari – masalan, foyda rentabelligi koeffitsientlari, operatsion va sof foyda va boshqalar – keng qo'llanilmoqda. Shu boisdan foyda va zarar hisobotini tayyorlashda MHXS qo'llash chuqur, tizimli hamda zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilish korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Avloqulov A.Z. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to'g'risidagi axborotlarni aks ettirish xususiyatlari. Raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. T.:2020.

2. S.N.Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) avtoreferati. T.: 2019.

3. Hussainey, K. (2011). The Effects of IFRS Adoption on Financial Disclosure: Evidence from Developing Markets. Journal of International Financial Management & Accounting, 22(1), 56-78.

4. Alexander, D., & Nobes, C. (2016). International Financial Reporting and Analysis. Cengage Learning EMEA.

5. Соколов, Я.В. (2018). Бухгалтерский учет в России: исторический аспект. Москва: Финансы и статистика

6. Urakova M.H O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) o'tish bosqichlari va barqaror rivojlanishi Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali 2024, 4(03), 423-427

7. Olimova S. (2024). Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi tizimida qo'llashning ahamiyati. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2(10), 590–600.

8. Olimjonov, H. (2025). O'zbekiston buxgalteriya hisobi milliy standartlarining mhxs bilan taqqoslama tahlili. Академические исследования в современной науке, 4(35), 58–61.